



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ASBEST TARKIBLI
CHIQINDILARNI YIG‘ISH, TASHISH VA KO‘MISH**

**O‘zbekiston Respublikasining
0158-04 - sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

_____ B. NIYAZMATOV

12-iyul 2004-yil

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ASBEST TARKIBLI
CHIQUINDILARNI YIG‘ISH, TASHISH VA KO‘MISH**

**O‘zbekiston Respublikasining
0158-04 - sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2004

Sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena me'yorlariga rioya qilmaslik qonun bo'yicha ta'qib qilinadi.

Ushbu gigiyena me'yorlari, sanitariya qoidalari va normalari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar hamda alohida shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur sanitariya qoidalari va normalari asbest tarkibli chiqindilarni yig'ish, tashish va ko'mib tashlashga doir asosiy talablarni belgilaydi. Bularning maqsadi ushbu chiqindilarning inson salomatligiga va atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, shuningdek, bunday chiqindilarni qo'shimcha xomashyo manbai sifatida xo'jalik aylanmasiga jalb etishdir.

1.2. Asbest - silikatlar sinfiga mansub tolali minerallarning umumiy nomi bo'lib, ko'pincha ikki turda uchraydi: xrizotil-asbest va amfibol-asbest. Asbest tarkibli chiqindilar asbest tarkibli materiallarni qazib olish, boyitish, qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonida hosil bo'ladigan xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va boshqa buyumlarning qoldiqlaridan iborat.

1.3. Ushbu sanitariya qoidalari va normalari O'zbekiston sharoitida asbest tarkibli chiqindilarni yig'ish, tashish va ko'mish jarayonlarida ishtirok etadigan yoki ularni nazorat qiladigan DSENM hududiy markazlari, vazirliklar, idoralar va loyiha tashkilotlari xodimlari uchun mo'ljallangan.

2. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNING HOSIL BO'LISHI, TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

2.1. Asbest tarkibli chiqindilar asbestdan mustahkamlovchi material sifatida foydalaniladigan ishlab chiqarishlarda hosil bo'ladi. Bular asbotsement (quvurlar, tom yopish tunukalari, plitalar) ishlab chiqarish, to'qimachilik va qog'oz materiallarda yonishga qarshi qo'shimcha, ishqalanish materiallari, plastmassalarda to'ldiruvchi, ishqorga chidamli materiallar va buyumlar, kimyo, farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida filtrlovchi materiallar, izolyatsion va dielektrik materiallar tayyorlashda qo'llaniladi.

2.2. Tog'-kon boyitish korxonalarida asbest rudasini qazib olish va boyitishda ikki turdagi chiqindi hosil bo'ladi: qoplovchi tog' jinslari (qazib olish chiqindilari) va boyitish chiqindilari. Ular kimyoviy tarkibiga ko'ra suvli magniy silikatlariga kiradi. Qoplovchi tog' jinslari ishlatilgan karerlarni to'ldirish va shag'al tayyorlash uchun ishlatiladi; boyitish chiqindilari esa qo'shimcha ravishda sochiluvchan qurilish materiallari ishlab chiqarish va o'z ehtiyojlari uchun – karer avtomobil va temir yo'llari polotnosini to'kishda foydalaniladi.

2.3. Asbest-sement ishlab chiqarishda nam, quruq, chang va boshqa

chiqindilar hosil bo‘ladi. Nam chiqindilar qisman ishlab chiqarishga qaytariladi, qolganlari esa ko‘mish joylariga olib ketiladi. Quruq chiqindilar asbest-sement buyumlarning yaroqsiz chiqishi va sinishi natijasida hosil bo‘ladi; changli chiqindilar esa quvur va muftalarga mexanik ishlov berish, listlarni kesish va asbest qoplarini ochish natijasida paydo bo‘ladi. Har ikki turdagi chiqindi ham beton devor mahsulotlari uchun to‘ldiruvchi sifatida qisman qayta ishlatiladi.

2.4. Asbest tog‘-kon boyitish ishlab chiqarishi katta miqdordagi qoplovchi tog‘ jinslarini qazib olish va ko‘chirish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning taxminan 70 foizi ag‘darmaga chiqarib tashlanadi. Ishlab chiqarilayotgan asbestning 50 foizdan ortig‘ini iste‘mol qiladigan asbest-sement ishlab chiqarish chiqindilari 2 foizdan 15,5 foizgacha; asbest-texnik ishlab chiqarish chiqindilari esa 35 foizgacha yetadi.

3. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNING ZAHARLILIK DARAJASI BO‘YICHA TASNIFI

3.1. O‘zbekiston Respublikasi SanQvaM № 0128-02 "O‘zbekiston Respublikasi sharoitida zaharli sanoat chiqindilarining gigienik tasniflagichi"ga muvofiq, tarkibida asbest bo‘lgan chiqindilar ikki sinfga - 3 va 4-sinfga bo‘linadi.

Xavflilik darajasining 3-sinfiga (o‘rtacha xavfli) asbestning o‘zi, asbest gazlamalar va tolalar, qistirma materiallar, salnikli vtulkalar kiradi.

Xavflilik darajasining 4-sinfiga (kam xavfli) quyidagilar kiradi: qog‘oz, karton va ulardan tayyorlangan buyumlar chiqindilari, tol, ruberoid va bitum shimdirilgan qog‘oz, asbotsement chiqindilari, shag‘al, presslangan asbest va rezina-asbest buyumlar, mineral tolalar, gazlamalar va iplar, asbest silliqlash changi, asbest aralashgan tog‘ jinslari changi.

3.2. Tarkibida asbest bo‘lgan chiqindilarni ishlab chiqaruvchi yoki egasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining hududiy organiga chiqindilarni hisobga olish uchun ariza va chiqindilarning har bir turi bo‘yicha boshlang‘ich ma‘lumotlarni taqdim etadi. Bu ma‘lumotlar chiqindilarning kelib chiqishi, ularning agregat holati, standartlashtirilgan tadqiqot usullari bilan aniqlangan chiqindilarning kimyoviy tarkibi va xavflilik darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim.

4. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNI TO‘PLASH VA VAQTINCHALIK SAQLASH

4.1. Korxonalarni loyihalashda ishlab chiqarishni rivojlantirishning prognoz qilinayotgan hajmiga muvofiq kutilayotgan sanoat chiqindilari (jumladan, tarkibida asbest mavjud bo‘lgan chiqindilar) miqdori, sifati va xavflilik sinflari haqidagi ma‘lumotlarni hamda atrof-muhitni sanitariya jihatidan muhofaza qilish choralari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlar taqdim etilishi shart (O‘zR

SanQvaMning 0127-02-sonli "Sanoat chiqindilarini inventarizatsiya qilish, tasniflash, saqlash va zararsizlantirishning sanitariya qoidolari"ga qarang).

4.2. Korxonalarda asbest chiqindilari hosil bo'lishini eng samarali ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish orqali minimal darajaga tushirish lozim. Chiqindisiz texnologiyalarni yaratish imkoni bo'lmagan taqdirda, chiqindilardan ikkilamchi xom-ashyo sifatida maksimal darajada foydalanishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmuasini ko'zda tutish zarur.

4.3. Mexanizmlar atrofidagi polda to'plangan mayda qirindi va chiqindilarni chang hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan usullar bilan tozalash kerak. Qo'lda tozalash holatida nafas olish a'zolarini shaxsiy himoya vositalari (respiratorlar) bilan himoyalash shart. Boshqa usullar bilan yig'ilgan sochiluvchi materiallarni suv o'tkazmaydigan qoplarga (konteynerlarga) joylashtirish lozim. Idishlarni almashtirish va bo'shatishni mexanizatsiyalashtirilgan usulda amalga oshirish kerak.

4.4. Tarkibida asbest bo'lgan qattiq chiqindilar chiqarib tashlanishini kutayotganda buzilmaydigan joylarda saqlanishi shart. Sochiluvchan asbest tolalari bo'lgan qoplarni (yoki boshqa idishlarni) maxsus ajratilgan joyda maydalab yoki zich tashiladigan toylarga o'rab chiqarib tashlash lozim. Asbestdan bo'shagan qoplarni makulatura yoki boshqa materiallar uchun idish sifatida qayta ishlatish ta'qiqlanadi. Ularni asbest-sement va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda ikkilamchi xomashyo sifatida qo'llash mumkin.

4.5. Tarkibida asbest bo'lgan suyuq chiqindilar maxsus konteynerlar, sig'imlar yoki tindirgichlarga joylashtirilishi va muntazam ravishda bo'shatilishi kerak. Shlamning to'kilib ketishi va qurib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

4.6. Konteynerlar, qoplar yoki idishlardagi chiqarib tashlashni kutayotgan barcha asbest chiqindilari tegishli yozuvlar va belgilar bilan ta'minlanishi shart.

4.7. Chiqindilarni korxonaning sanoat maydonida yopiq yoki ochiq holda joylashtirish paytida havoga ajralib chiqishi mumkin bo'lgan zararli moddalar ish zonasi havosidagi REMning 30% dan oshmaydigan konsentratsiyada; tuproq va suv havzalariga esa - mavjud gigienik me'yorlardan oshib ketmaydigan miqdorda bo'lishi ruxsat etiladi.

4.8. Asbest tarkibli chiqindilarni yig'ish va vaqtincha saqlash bo'yicha barcha tadbirlar va jarayonlarni bajarishda ishchilar tegishli himoya kiyimlari va nafas olish niqoblarini taqishlari shart.

5. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNI TASHISH

5.1. Sanoat chiqindilarini poligonga tashish avtomobil va temir yo'l transporti orqali amalga oshirilishi mumkin; bunda tarkibida asbest mavjud chiqindilarni transportga yuklash, tashish, tushirish va poligonda ko'mish O'zR

SanQvaM №0127-02 "Sanoat chiqindilarini xatlovdan o'tkazish, tasniflash, saqlash va zararsizlantirishning sanitariya qoidolari"ga muvofiq korxona tomonidan ishlab chiqilgan maxsus yo'riqnoma asosida bajarilishi lozim.

5.2. Chiqindilarni yuklash, tashish, tushirish va ko'mish bilan bog'liq ishlar mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi shart; chiqindilarni tashishda yo'lda yo'qotishlar va atrof-muhitning ifloslanishi ehtimoli istisno etilishi kerak. Qadoqlanmagan asbestni ochiq yuk mashinalarida va temir yo'l platformalarida tashish taqiqlanadi. Tashish paytida chiqindilar to'kilgan hollarda, uning hajmiga mos choralarni zudlik bilan ko'rish zarur. Agar to'kilgan chiqindilar hajmi kichik bo'lsa, ularni dastlabki idishga yig'ish, katta bo'lganda esa namlab, shaxsiy himoya vositalaridan (respiratorlardan) foydalangan holda, barcha ehtiyot choralari ko'rib, olib tashlash lozim.

6. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNI KO'MISH

6.1. Tarkibida asbest bo'lgan chiqindilarni ko'mish qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) va utilizatsiya qilinmagan qattiq sanoat chiqindilari poligonlarida amalga oshirilishi shart (O'zR SanQvaM №0127-02 "Sanoat chiqindilarini inventarizatsiya qilish, tasniflash, saqlash va zararsizlantirishning sanitariya qoidolari" hamda O'zR SanQvaM № "O'zbekiston sharoitida maxsus poligonlarda qattiq maishiy chiqindilarni saqlash va zararsizlantirishga qo'yiladigan sanitariya talablari"ga qarang).

6.2. QMCh poligonlariga tarkibida asbest bo'lgan 4-xavflilik sinfiga mansub chiqindilar miqdoriy jihatdan cheklanmagan holda qabul qilinadi. 3-xavflilik sinfiga mansub chiqindilar esa cheklangan miqdorda (QMCh massasining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda) qabul qilinib, maishiy chiqindilar bilan birgalikda joylashtiriladi. Bunday chiqindilar ro'yxati DSENM hududiy markazlari bilan kelishiladi.

6.3. Hududdagi DSENM markazi poligonlarning qurilishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini olib boradi.

6.4. Poligonlarni suv manbalari va mineral suvlar sanitariya muhofazasi zonalarida hududida, kurortlarning barcha muhofaza zonalarida, yoriq tog' jinslarining yer yuzasiga chiqish joylarida, suv qatlamlari yuzaga chiqadigan joylarda, shuningdek aholining ommaviy dam olish maskanlari va sog'lomlashtirish muassasalari hududlarida joylashtirish taqiqlanadi.

6.5. Poligonlar aholi punktlariga nisbatan ustunlik qiluvchi shamol yo'nalishiga qarshi tomondan joylashtirilishi lozim; daryolar oqimi bo'yicha xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti uchun suv olish joylaridan pastroqda, baliqlarning ommaviy ko'payish va o'sish hududlaridan quyi oqimda, xo'jalik-ichimlik maqsadlarida foydalaniladigan ochiq suv havzalari suv yig'ish maydonlari

chegarasidan tashqarida bo'lishi kerak.

6.6. Poligonlar yer osti suvlari 20 metrdan chuqurroqda joylashgan va filtratsiya koeffitsienti sutkasiga 10'6 metrdan oshmaydigan kam o'tkazuvchan jinslar bilan qoplangan joylarda joylashtirilishi lozim. Ko'mish joylari tubining asosi yer osti suvlari sathining eng yuqori mavsumiy ko'rsatkichidan 4 metrdan ko'p bo'lmagan masofada bo'lishi kerak.

6.7. Poligonlarning sanitariya-muhofaza zonasi o'lchami amaldagi sanitariya-epidemiologiya qoidalari va me'yorlariga muvofiq belgilanadi; sanitariya-muhofaza zonasi hududi obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan bo'lishi shart.

6.8. Poligonlar qishloq xo'jaligi yerlari va tranzit magistral yo'llardan kamida 200 metr, dam olish maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallanmagan o'rmon massivlari va daraxtzorlardan kamida 50 metr masofada joylashtirilishi kerak. Poligon hududining sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi ekinzorlari, o'rmonzorlar va boshqa ob'ektlar tomon qiyaligi 1,5 foizdan oshmasligi lozim.

6.9. Jarliklarda, balkalarda, cho'kuvchan gruntli uchastkalarda, shuningdek karst jarayonlari rivojlangan hududlarda; turar joy qurilishi, sanoat korxonalarini kengaytirish, sog'lomlashtirish muassasalarini qurish va tashkil etish uchun zaxiraga olingan hududlarda hamda aholining dam olish joylarida poligonlar barpo etishga yo'l qo'yilmaydi.

6.10. Poligon hududi perimetri bo'ylab hududni suv bosishdan himoya qilish maqsadida chuqur yer osti suvlarini drenajlash va atmosfera yomg'ir hamda qor suvlarini ushlab qolish uchun halqasimon kanal bilan o'raladi.

Poligon hududi butun ichki perimetri bo'ylab balandligi 1,5-1,7 m, kengligi 3,0-3,5 m bo'lgan tuproq ko'tarma bilan o'raladi.

7. ASBEST TARKIBLI CHIQINDILARNI KO'MISH XUSUSIYATLARI.

7.1. Poligonga olib chiqiladigan barcha chiqindilar uchun chiqindilar tarkibining texnik tavsifi va poligonda ular bilan xavfsiz ishlash choralari qisqacha bayon etilgan Pasport tuzilishi shart.

7.2. Xavflilik darajasi 4-sinfga mansub qattiq chiqindilar poligonda qatlam-qatlam qilib joylashtiriladi, har bir qatlam tekislanib, zichlanishi lozim.

Xavflilik darajasi 3-sinfga mansub qattiq changli va changsimon chiqindilarni ko'mish o'lchamlari me'yorlanmaydigan kotlovanlarda amalga oshirilishi kerak. Chiqindilarni kotlovanlarga to'kish ularni qatlam-qatlam zichlagan holda olib borilishi lozim. Kotlovanlardagi chiqindilarning eng yuqori sathi hududning kotlovanlarga tutashgan rejalashtirilgan belgisidan kamida 2 m past bo'lishi shart.

7.3. Changsimon chiqindilarni ko'mish kotlovanlarda, chiqindilarning tarqalishini oldini oladigan choralar ko'rilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Ushbu chiqindilarni transportdan tushirish paytida shamol bilan tarqalishini oldini olish uchun namlash usulidan foydalanish yoki paketlarda yoxud qog'oz qoplarda tashish lozim. Changsimon chiqindilar har safar kotlovanga yuklangandan so'ng, ular tuproq bilan qoplanishi shart.

7.4. Quduqlar va shaxtalardan faqat tarkibida asbest bo'lgan bo'lakli chiqindilarni saqlash uchun foydalanish mumkin.

7.5. Kotlovan loyihada ko'rsatilgan chegaraviy sathgacha chiqindilar bilan to'ldirilgandan so'ng, ular 0,25 metr qalinlikdagi zichlangan tuproq qatlami bilan qoplanishi lozim. Poligondan foydalanish tugagandan so'ng, atrof-muhitning tabiiy holatini tiklash bo'yicha chora-tadbirlar (rekultivatsiya, ko'kalamzorlashtirish, daraxtlar ekish) ko'zda tutilishi zarur.

8. POLIGONLARDAN FOYDALANISHNI ISHLAB CHIQARISH NAZORATI.

8.1. Poligondan foydalanish jarayonida korxona laboratoriya xizmati tomonidan chiqindilar tarkibiga kiruvchi zaharli moddalarning yer osti suvlarida, poligonga tutash hudud tuprog'ida, poligon atrofidagi o'simliklarda, shuningdek, atmosfera havosidagi miqdori O'zbekiston Respublikasi SanQvaMning "O'zbekiston sharoitida maxsus poligonlarda qattiq maishiy chiqindilarni saqlash va zararsizlantirishga qo'yiladigan sanitariya talablari"ga muvofiq muntazam ravishda nazorat qilinishi shart.

8.2. Poligon pasporti, namunalar olish chastotasi, namunalar olish nuqtalari va yer osti suvlari, tuproq, o'simliklar hamda havo namunalarini tahlil qilish jadvallari korxonaning bosh muhandisi tomonidan DSENM hududiy markazlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

8.3. Tekshirilayotgan muhitlarda fonga nisbatan zararli moddalar miqdori oshganligi aniqlansa, darhol buning sababini o'rganish va zararli moddalarning atrof-muhitga kirib borishini bartaraf etish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar ko'rish lozim.

8.4. Chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish va poligonga qabul qilish bilan shug'ullanuvchi xodimlar korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan hamda ularning rahbarlari tomonidan tasdiqlangan texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi xavfsizlik va sanoat sanitariyasi qoidalari bilan tanishtirilishi shart. Rahbarlar ushbu qoidalarining amaldagi talablarga muvofiqligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

8.5. Poligon xodimlari ehtimoliy zaharlanish alomatlari va birinchi yordam ko'rsatish usullari haqida xabardor qilinishi, shuningdek, mavsumga mos ravishda maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanishi lozim.